BOSHQARUV HISOBIDA "XARAJATLAR - ISHLAB CHIQARISH HAJMI - FOYDA" KO'RSATKICHLARI.

Xusinov Ibragim Ismailovich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
"Moliyaviy hisob va hisobot" kafedrasi professori
xusinovii@gmail.com
Mirvaliyev Mirsiddiq Bexzod o`g`li
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Buxgalteriya hisobi fakulketi talabasi
mirsidiqmirvaliyev1708@gmail.com

MAQOLA MALUMOTI

MAQOLA TARIXI:
Received: 03.11.2026
Revised: 04.11.2026
Accepted: 05.11.2026

KALIT SO'ZLAR:
zararsizlik nuqtasi, xavfsizlik zaxirasi, operatsion darajasi, doimiy xarajatlar, o'zgaruvchan xarajatlar, mahsulot turi, boshqaruv qarorlari

ANNOTATSIYA:

Maqolada boshqaruv hisobidagi "Xarajatlar - ishlab chiqarish - foyda" (CVP) ko'rsatkichlarining asoslari hamda zararsizlik nuqtasi, xavfsizlik zaxirasi va foyda koeffitsienti ta'riflari o'rganildi. O'zbekistonda 2022-2025-yillarda energiya tariflarining CVP ko'rsatkichlariga ta'siri baholandi. Ko'p mahsulot ishlab chiqaruvchi korxonasida CVP analizi tatbiq usullari tahlil qilinib, mahsulot optimallashtirilishi, narxlarni belgilash va qarorlarni qabul qilish takliflari ishlab chiqilgan

Kirish. Jahon iqtisodiyotida ishlab chiqarish xarajatlari va savdo narxlarining beqarorligi sharoitida korxonalar qisqa muddatli boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun doimiy ravishda tahlil zaruriyatini sezmoqda. Shu maqsadda "Xarajatlar – ishlab chiqarish hajmi – foyda" yoki CVP (Cost-Volume-Profit) analizi shaxs, firma va sanoat darajasida qabul qilingan qarorlarning asosi bo'lgan eng muhim boshqaruv elementi hisoblanadi. CVP analizi kategoriyasi XX asr o'rtalarida xorijiy boshqaruv hisobi maktabida o'z rivojlanishiga ega bo'lib, Horngren, Vaxrushina kabi olimlar ushbu usulni takomillashtirgan. Hozirgi kunda CVP analizi qisqa muddatli boshqaruv qarorlarini qabul qilishning asosiy vositalaridan biri hisoblanadi.

O’zbekiston Respublikasida korxonalar boshqaruvini raqamlashtirish va ERP tizimlarini joriy etish jarayoni shiddatlangan. Prezidentning 2025-yil 18-noyabrdagi farmoyishi bilan davlat ulushi 50 foiz va undan ortiq bo’lgan korxonalarda 2026-yil uchun “mahsulot tannarxini kamaytirish va faoliyati samaradorligini oshirish” asosiy vazifa etib belgilandi.[1] 2026-yil 13-fevral o’tkazilgan yig’ilishda Prezident 19 ta strategik korxona rahbarlariga “tannarxni 10-15 foizga qisqartirish vazifasini qo’ydi”. O’zbekistonda 2022-2025-yillarda sanoat ishlab chiqaruvchilari narxlari yillik o’rtacha 10-17% o’sgan bo’lsa, iste’mol narxlari 7-12% o’sgan. Energiya resurslari tarifflari esa 2,44 marta (elektr energiyasi) va 3,03 marta (tabiiy gaz) o’sgan. Ushbu beqarorligi korxonalarning xarajat strukturasini keskin o’zgartirib, zararsizlik nuqtasini ko’tarib berdi. Shu sababli korxonalarning CVP analizi asosida oqilona qarorlar qabul qilishlari zarur bo’ldi.

Boshqaruv hisobiga oid adabiyotlarda CVP tahlilining nazariy jihatlari keng yoritilgan bo’lsa-da (Horngren, Vaxrushina, Kerimov va boshqalar), ko’p nomenklaturali ishlab chiqarish korxonalarida ushbu usuliyotni to’g’ri tatbiq etish amaliyoti yetarli darajada tadqiq etilmagan. Mahalliy olimlar O.U. Yo’lchiyev va R.A. Iminov CVP analizi muhimligini ta’kidlab bo’lsalar-da, O’zbekiston sanoat korxonalarining real sharoitida CVP analizi qanday tatbiq etilishi haqida tadqiqot yetishmaydi. Quyidagi asosiy savollar hal qilinishi zarur: zararsizlik nuqtasida qancha hajmda ishlab chiqarish kerak, energiya tariflarining oshishi zararsizlik nuqtasiga qanday ta’sir ko’rsatadi, ko’p mahsulotlar ishlab chiqarishda mahsulot turi optimallashtirilib qaysi mahsulotga ko’proq e’tibor berish kerak, xarajatlarni turli yo’nalish bo’yicha qisqartirish uchun qaysi omillar eng muhim?

Adabiyotlar sharhi.

CVP analizi kategoriyasi XX asr o’rtalarida xorijiy boshqaruv hisobi maktabida o’z rivojlanishiga ega. Amerika olimi C. Horngren 1960-yillardan boshlab CVP analitik usulni ilmiy asosga olib keldi. Horngren va uning o’quvchilari yozgan “Cost Accounting: A Managerial Emphasis”[2] mashhur darsligida CVP analizi zararsizlik nuqtasi (break-even point) hisoblashda asosiy instrument sifatida taqdim etilgan. Horngren zararsizlik nuqtasini “doimiy xarajatlarni o’zgaruvchan xarajatlarga nisbatan qolgan daromaddan (contribution margin) qoplash mumkin bo’lgan mahsulot birligining soni” sifatida ta’rifladi. Horngren o’z darsligida CVP analitik modeli grafiklar va formulalar orqali batafsil bayon etib, sezgirlik tahlili (sensitivity analysis) tushunchasini kiritdi. Uning o’ng yondashuvi boshqaruv hisobining jahon maktablarida qabul qoldi.

[1] O‘zbekiston respublikasi Prezidentining farmoyishi “Davlat korxonalarida tannarxni kamaytirish va samaradorlikni oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”

[2] Datar S.M., Rajan M.V. Horngren’s Cost Accounting: A Managerial Emphasis. – 17th ed., Global Edition. – Harlow: Pearson, 2021.

M.A. Vahrushina (Rossiya) “Boshqaruv hisobi: boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun informatsiya”[3] kitobida CVP analizi qisqa muddatli boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun zaruriy element sifatida qaralgan. Uning ta’rifiga ko’ra, “CVP analizi - doimiy, o’zgaruvchan xarajatlar, tannarx va ishlab chiqarish hajmining o’zaro bog’liqligini tahlil qilish” jarayonidir. Vahrushina operatsion leveraj (operating leverage) tushunchasini to’liq izohladi. U “ishlab chiqarish hajmining foydaning foiz o’zgarishiga bo’lgan ta’sirining darajasini” ko’rsatadigan operatsion leveraj koeffitsientini hisoblash formulasini ilmiy asosladi. Vahrushina shuningdek, ko’p nomenklaturali ishlab chiqarish bo’yicha CVP analizi tatbiq etish usullarini tafsilda bayon etdi.

V.E. Kerimov (Rossiya) “Boshqaruv hisobi: Boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun buxgalteriya informatsiyasi”[4] seriyasida xarajatlarni hisobga olish va kalkulyatsiyalash boshqaruv hisobining markaziy bo’limi sifatida ko‘rib chiqadi. Kerimov CVP analizi asosida korxonalarning riskni baholash, strategik yo’nalishlari belgilash va uzoq muddatli investitsiya qarorlarini qabul qilish mumkinligini ta’kidladi. Kerimov doimiy va o’zgaruvchan xarajatlarni to’g’ri tasniflash zaruriyatiga oid mukammallashtirilgan metodologiyani ishlab chiqdi.

O’zbekistonda CVP analizi tadqiqatlari yangi yo’nalish sifatida boshlanmoqda. Mahalliy olimlardan O.U. Yo’lchiyev “Xarajatlar hisobi va audit tizimining nazariy asoslari” ishida xarajatlarni tasniflashda doimiy va o’zgaruvchan xarajatlarni ajratishning CVP analizi uchun ahamiyatini ta’kidladi. Yo’lchiyev quyidagicha yozadi: “CVP analiz korxonalari qisqa muddatda kiruvchi daromad va chiquvchi xarajatlar o‘rtasidagi munosabatni o‘rganishga yordam beradi, bu esa maqsadli foydasini ta’minlovchi strategiya ishlab chiqishga imkon beradi.” Yo’lchiyev CVP analizi mahalliy korxonalarning real sharoitiga tatbiq etish usullarini tahlil qildi.

R.A. Iminov “Korxonalarda CVP analizi asosida strategik qarorlarni qabul qilish”[5] maqolasida CVP analizi asosida energiya xarajatlari yuqori bo’lgan sanoat tarmoqlari (metallurgiya, kimyo, keramika ishlab chiqarish) uchun sezgirlik tahlilini har chorakda o’tkazish zarurligini ta’kidladi. Iminov energiya tariflarining o’zgarishi zararsizlik nuqtasiga ta’sirini hisoblash formulalarini ishlab chiqdi. U CVP analizi yordamida korxonalar mahsulot mixi optimallashtirilishini va raqobatbardosh narxlarni belgilashni amaliyotda tatbiq etish imkoniyatlarini ko’rsatdi.

O’zbekiston Respublikasi Markaziy bankining “Inflyatsiya ko’rsatkichlari” (2022-2025)[6] va Statistika agentligining “Sanoat mahsulotlari ishlab chiqaruvchilari narxlari indeksi”[7]

[3] Vahrushina M.A. Managerial Accounting: Textbook for Higher Education Institutions. – 2nd ed. – Moscow: Omega-L, Visshaya Shkola, 2002.
[4] Kerimov V.E. Management Accounting: Accounting Information for Managerial Decision-Making. – Moscow: Dashkov i K, 2003.
[5] Iminov R.A. Strategic Decision-Making Based on CVP Analysis in Enterprises. – Tashkent: Science and Technology, 2021
[6] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi (https://siat.stat.uz/data/1577/) ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

rasmiy ma’lumotlari CVP analizi nazariyasini O’zbekiston iqtisodiyotiga tadbiq etishda asosiy manbalar bo’ldi. Energiya vazirligi tomonidan e’lon qilingan energiya tariflarining 2023-2026-yillardagi o’zgarishi CVP analizi hisob-kitoblarning asos bo’ldi.

Hududi iqtisodiyotlar (Tashkent, Samarqand, Xorazm viloyatlari) ishlab chiqarish korxonalarida o’tkazilgan tajribalar CVP analizi tatbiq etish usullarining amaliyotini ko’rsatdi. Bu tadqiqotlar CVP analizi asosida xarajatlarni qisqartirish, narxlarni belgilash va zarar-foyda balansini o’rnatishning ahamiyatini tushuntirdi.

Shuningdek, xorijiy adabiyotlardan S.M. Datar, M.V. Rajan “Horngren’s Cost Accounting: A Managerial Emphasis” (2021, 17-nashr), T.T. Nagle, G. Müller “The Strategy and Tactics of Pricing” (2018) kabi asarlar CVP analizi nazariyasining yangi yo’nalishlari, xususan raqobatbardosh narxlarni belgilashda CVP analitik usullarning rolini izohladi.

Bu adabiyotlar CVP analizi kategoriyasining mazmunan rivojlanishi, xorijiy va mahalliy maktablarning yondashuvlarining o’zaro bog’liqligini, hamda O’zbekiston iqtisodiyot sharoitida CVP analizi tatbiq etishning zaruriligi haqida asosiy tushunchalarni beradi.

Tadqiqot metodologiyasi

Mazkur tadqiqotda tizimli yondashuv, qiyosiy va statistik tahlil, iqtisodiy hisob-kitob va sezgirlik tahlili usullaridan foydalanildi. 2022-2025-yillardagi sanoat va iste’mol narxlari indeksiga oid ma’lumotlar tahlil qilingan. Energiya tariflarining ta’sirini baholash uchun rasmiy manbalardan foydalanilgan. Ko’p turli mahsulotlar bo’yicha CVP analizi marjinal daromad nisbati bo’yicha guruhlash orqali amalga oshirilgan.

Tahlil va natijalar.

CVP analizi amaliyotda tatbiq etishni o'rganaylik. Avvalo, xarajatlar va narxlar o'zgarishining tannarx va ishlab chiqarish hajmiga ta'sirini baholash muhim ahamiyatga ega. O'zbekistonda 2022-2025-yillarda sanoat ishlab chiqaruvchilari va iste'mol narxlarining o'zgarish dinamikasi quyidagi rasmda keltirilgan.

Ma'lumotlarga ko'ra, 2022-2025-yillarda sanoat ishlab chiqaruvchilari narxlarining yillik o'sish sur'ati iste'mol narxlaridan doimiy ravishda yuqori bo'lib, ular o'rtasidagi tafovut 2023-yildagi 5,9 foiz nuqtadan 2025-yilda 2,8 foiz nuqtagacha qisqargan. Ushbu dinamika korxonalarning xomashyo va energiya xarajatlarini iste’molchilarga o‘tkazilayotgan narxlardan tezroq o‘sayotganini ko‘rsatadi. Boshqaruv hisobi nuqtayi nazaridan bu CVP analizi bo‘yicha marjinal daromad qisqarayotganini anglatadi.

Energiya tariflarining o'zgarishi korxonalarning CVP ko'rsatkichlariga eng katta ta'sir ko'rsatadigan omillardan biri hisoblanadi. Energiya resurslari tariflarining 2023-2026-yillardagi o'zgarishi quyidagi jadvalda keltirilgan.

1-jadval ma'lumotlariga ko'ra, yuridik shaxslar uchun energiya resurslari tariflarining 2023-2026-yillarda: elektr energiyasi 2,44 barobar (450 so‘mdan 1 100 so‘mga), tabiiy gaz

[7] O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki (https://cbu.uz/uz/monetary-policy/annual-inflation/indicators/) ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

esa 3,03 barobar (660 so‘mdan 2 000 so‘mga) oshadi. Bu energiya tariflarining to'g'ri ishlab chiqarish xarajatlariga ta'sir ko'rsatishini ko'rsatadi.

1-jadval

Yuridik shaxslar uchun energiya resurslari tariflarining o‘zgarishi va CVP analizi ta'sirlari[8]

Amal qilish davri	Elektr energiyasi (sanoat), so‘m/kVt·soat	Tabiiy gaz (sanoat), so‘m/m³	O'sish koeffitsienti
2023-yil 1 oktyabrgacha	450	660	1,0
2023-yil 1 oktyabrdan	1 000	1 800	2,22
2025-yil bahoridan	1 000	1 800	2,22
2026-yil 1 iyundan	1 100	2 000	2,44
O‘sish, marta (2023-yil boshiga nisbatan)	2,44	3,03	-

Agar korxonaning ishlab chiqarish xarajatlarida energiya xarajatlari 15-20 foizni tashkil etsa, tariflar 2,44 barobar o'sganda, o'zgaruvchan xarajatlar 0,175 × 2,44 = 0,427 yoki taxminan 42,7 foizga o'sadi Bunday sharoitda marjinal daromad keskin qisqaradi, demak, zararsizlik nuqtasi yuqoriga ko’tariladi.

Asliyatda, agar:

• Narx = 1 000 so‘m • O'zgaruvchan xarajatlar = 600 so‘m (60%) • marjinal daromad= 400 so‘m (40% nisbat) • Doimiy xarajatlar = 10 mln so‘m

bo‘lsa, zararsizlik nuqtasi: BEP = 10 mln so‘m / 400 = 25 000 bo‘ladi.

Energiya tariflarining o'zgarishidan so'ng esa:

• O'zgaruvchan xarajatlar = 600 + (100 × 0,427) = 642,7 so‘m (64,3%) • Marjinal daromad= 357,3 so‘m (35,7% nisbat) • Zararsizlik nuqtasi: BEP = 10 mln so‘m / 357,3 = 27 987 bo‘ladi.

Ya'ni 2 987 ko'proq ishlab chiqarish kerak bo'ladi, yoki oldingi haqiyqiy hajm 27 000 bo‘lsa, zararsizlik zaxirasi aylanib ketadi va korxona zararga tushadi. Ko'p nomenklaturali ishlab chiqarish bo'yicha CVP analizi amalga oshirish yanada murakkab va o'ziga xos metodologiyani talab etadi. Har bir mahsulot turining o'ziga xos narxi, o'zgaruvchan xarajatlari va marjinal daromad chegarasi bor. 2-jadval ma'lumotlariga ko'ra, A mahsulotning contribution margin nisbati eng yuqori (60%), B mahsulot 53%, C mahsulot 50%, D

[8] Jadval Energetika vazirligi ma’lumotlari asosida tayyorlandi.

mahsulot 48%. Agar o'rtacha CM nisbati 52,5% bo‘lsa, zararsizlik tushu (tushum bo'yicha): BEP = 50 mln so‘m / 0,525 = 95,24 mln so‘m bo‘ladi.

Lekin agar mahsulot turis o‘zgarsa, yani A mahsulotdan ko‘proq ishlab chiqarilsa (25%), B mahsulot 35% (bugun 30%), C mahsulot 25% (bugun 30%), D mahsulot 15% (bugun 20%) bo‘lsa, o'rtacha CM nisbati 0,20×60% + 0,35×53% + 0,25×50% + 0,20×48% = 12% + 18,55% + 12,5% + 9,6% = 52,65% bo‘lib, aslida biroz ko‘tariladi. Ammo agar A mahsulotdan kam ishlab chiqarilsa, CM nisbat pasaydi.

2-jadval

Ko'p mahsulotli ishlab chiqarish bo'yicha CVP analizi[9]

Ko'rsatkich	A mahsulot	B mahsulot	C mahsulot	D mahsulot
Narx/v. (so‘m)	100	150	200	250
O'zgaruvchan xar./v	40	70	100	130
Contribution margin	60	80	100	120
CM nisbati (%)	60	53	50	48
Mixi (%)	20	30	30	20
Vazni baland CM	12.0	15.9	15.0	9.6

Ushbu tahlildan ko'rinib turadiki, marjinal daromad nisbati yuqori bo'lgan mahsulotlarni ko'proq ishlab chiqarish zararsizlik nuqtasiga tezroq erishishga yordam beradi.CVP analizi asosida qisqa muddatli boshqaruv qarorlarini qabul qilishda xavfsizlik zaxirasi va operatsion dastak juda muhim ko'rsatkichlardir. Xavfsizlik zaxirasi korxonaning haqiyqiy ishlab chiqarish hajmi zararsizlik nuqtasidan qancha foizga yuqori ekanligini ko‘rsatadi.

Xavfsizlik zaxirasi = (Haqiyqiy hajm – Zararsizlik hajmi) / Haqiyqiy hajm × 100% . Masalan, agar korxonaning haqiyqiy ishlab chiqarish hajmi 10 000 v. va zararsizlik nuqtasi 7 000 v. bo‘lsa, xavfsizlik zaxirasi = (10 000 - 7 000) / 10 000 × 100% = 30% bo‘ladi. Bu 30% kamayib ketsa ham korxona foydada qolishini anglatadi.

Operatsion dastak = Marginal daromad / Foyda formulasi bo'yicha hisoblanadi. Masalan, CM = 500 mln so‘m, Foyda = 200 mln so‘m bo‘lsa, operatsion dastak= 2,5 bo‘ladi. Bu ishlab chiqarish hajmi 10% oshganda, foyda 25% oshadi degani.

Sezgirlik tahlili CVP analizi asosida quyidagi ssenariylarda o'tkazilishi mumkin: narxning ±10% o'zgarishi, o'zgaruvchan xarajatlari +10%, energiya tarifflari +25%. Ushbu

[9] Jadval muallifning mustaqil hisob-kitoblari asosida tayyorlangan.

tahlildan ko'rinib tupadiki, bozor narxlari pasayish va energiya tariflarining oshishi korxonalarga eng katta xavf tashkil etadi.

3-jadval.

CVP analizi sezgirlik tahlili[10]

Ssenariy	Narx/v.	O'zgaruvchan xar./v	Zararsizlik nuqtasi
Asosiy ssenarii	100	60	25 000 v.
Narx +10%	110	60	20 833 v.
Narx -10%	90	60	33 333 v.
O'zgaruvchan xar. +10%	100	66	41 666 v.
Energiya tar. +25%	100	64	27 777 v.
Energiya tar. +50%	100	68	35 714 v.

3-jadval ma'lumotlariga ko'ra narxning 10% oshishi zararsizlik nuqtasini 4 167 v. (16,7%) pasaytiradi. Lekin narxning 10% kamayishi zararsizlik nuqtasini 8 333 v. (33,3%) ko'tarib, bu juda xavfli. O'zgaruvchan xarajatlari 10% oshishi zararsizlik nuqtasini 41,7% ko'tarib, energiya tariflarining 25% oshishi zararsizlik nuqtasini 11,1% ko'tarib, 50% oshishi esa 42,9% ko'tarib beradi.

Ushbu tahlillardan ko'rinib tupadiki, O'zbekistonda energiya tariflarining doimiy oshishi korxonalarning CVP analizi ko'rsatkichlariga juda katta ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun korxonalar xarajatlarni qisqartirish, energiya samaradorligini oshirish, narxlarni aniq taxlillar asosida belgilash, va zararsizlik zaxirasini 30-40% darajasida saqlashlari kerak. Quyidagi jadvalda 2022-2024-yillarda sanoat ishlab chiqarish xarajatlarining tarkibi va tahlili keltirilgan.

4-jadval.

Sanoat korxonalarda ishlab chiqarish xarajatlarining tarkibi va dinamikasi (2022-2024-yillar, mln so‘m)[11]

Xarajat turi	2022-yil	2023-yil	2024-yil	O'zgarish, %
Xomashyo xarajatlari	3,200	3,600	3,400	6,25
Energiya xarajatlari	400	800	820	105
Mehnat haqi	600	750	900	50

[10]Jadval muallifning mustaqil hisob-kitoblari asosida tayyorlangan.
[11] Jadval muallifning mustaqil hisob-kitoblari asosida tayyorlangan.

xarajatlari				
Doimiy xarajatlar (amortizatsiya, ijara)	500	500	480	-4
Jami xarajatlar (mln so‘m)	4,700	5,650	5,600	19,15

4-jadval ma'lumotlariga ko'ra, 2022-2024-yillarda korxonalarning jami xarajatlari 4,700 mln so‘mdan 5,600 mln so‘mga ko'tarilgan, ya'ni 19,15% o'sgan. Xomashyo xarajatlari o'zgaruvchan xarajatlarning asosiy qismi bo‘lib 90% ni tashkil etadi. Energiya xarajatlari 2022-2024-yillarda 105%ga o'sgan, bu CVP analizi nuqtayi nazaridan eng muhimi hisoblanadi. Doimiy xarajatlar (amortizatsiya, ijara) 500 mln so‘mdan 480 mln so‘mga tushgan, bu korxonaning doimiy xarajatlarni qisqartirishga muvaffaq bo'lganligini ko‘rsatadi.

CVP analizi asosida korxonalar qisqa muddatli (1 yilga qadar) boshqaruv qarorlarini qabul qilishlari zarur: narx belgilash, mahsulot turi optimallashtirish, xarajatlarni qisqartirish yo'nalishlari, ishlab chiqarish hajmini o'zgartirilishi, maxsus buyurtmalarni qabul qilish.

Xulosa va takliflar

O’tkazilgan tadqiqot “Xarajatlar – ishlab chiqarish hajmi – foyda” analizi (CVP) boshqaruv qarorlarini qabul qilishning juda muhim instrument ekanligini tasdiqladi. O’zbekistonda 2022-2025-yillarda sanoat ishlab chiqaruvchilari narxlarining iste’mol narxlaridan 2,8-5,9 foiz tezroq o’sishi hamda energiya tariflarining 2,44-3,03 barobar oshishi korxonalar zararsizlik nuqtasini 11-42% ko’tarib, xarajatlarni qisqartirish zaruriyatini yanada keskinlashtirib berdi.

CVP analizi tatbiq etishning asosiy muammolari quyidagilardir: doimiy va o’zgaruvchan xarajatlarni to’g’ri tasniflash, marjinal daromad nisbatini aniq hisoblash, ko’p mahsulotli ishlab chiqarish bo’yicha mahsulot turi optimallashtirilishi, boshqaruv qarorlarini har oyda yangilab turish.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi takliflar taklif etiladi:

Korxonalarda ERP tizimlarida CVP analizi moduli joriy qilish - Energiya tariflarining to’satdan o’zgarishi zararsizlik nuqtasiga ta’sirini avtomatik hisoblash tizimini yaratish zaruridir.

Energiya sektori uchun sezgirlik tahlili - Metallurgiya, kimyo, keramika kabi energiya xarajatlari yuqori bo’lgan sanoat tarmoqlarida CVP analizi asosida sezgirlik tahlilini har chorakda baholash zarur.

Ko’p mahsulot ishlab chiqarishda marjinal daromad nisbati asosida optimallashtirilishi - Har bir mahsulot turining marjinal daromad nisbatini doimiy hisoblash va raqobatbardosh narxlarni belgilashda amaliyotga tatbiq qilish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. O'zbekiston Respublikasining 2016-yil 13-apreldagi "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi O'RQ-404-son Qonuni (yangi tahriri). https://lex.uz/ru/docs/-2931253
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni. https://lex.uz/ru/docs/-5841063
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 18-noyabrdagi "Davlat korxonalarida tannarxni kamaytirish va samaradorlikni oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi F-59-son farmoyishi. http://lex.uz/ru/docs/7847396
4. Вахрушина М.А. Бухгалтерский управленческий учет: учебник. – М.: КноРус, 2025. – 392 с.
5. Datar S.M., Rajan M.V. Horngren's Cost Accounting: A Managerial Emphasis. – 17th ed. – Harlow: Pearson, 2021. – 976 p.
6. Nagle T.T., Müller G. The Strategy and Tactics of Pricing: A Guide to Growing More Profitably. – 6th ed. – New York: Routledge, 2018. – 384 p.
7. Yo'lchiyev O.U. Xarajatlar hisobi va audit tizimining nazariy asoslari va ularning boshqaruvdagi ahamiyati // International Finance & Accounting. – 2026. – № 1. – B. 45-52.
8. Iminov R.A. Korxonalarda CVP analizi asosida strategik qarorlarni qabul qilish // Iqtisodiyot va ta'lim. – 2025. – № 3. – B. 78-85.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi. Sanoat mahsulotlari ishlab chiqaruvchilari narxlari indeksining yillik dinamikasi. [https://siat.stat.uz/data/1577/]
10. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Inflyatsiya ko'rsatkichlari. [https://cbu.uz/uz/monetary-policy/annual-inflation/indicators/]